

**ISLOM TARAQQIYOT BANKI TOMONIDAN INVESTITSIYA
LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI**

**ANALYSIS OF THE CURRENT SITUATION OF FINANCING INVESTMENT
PROJECTS BY THE ISLAMIC DEVELOPMENT BANK**

**АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОЙ СИТУАЦИИ ПО ФИНАНСИРОВАНИЮ
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ИСЛАМСКИМ БАНКОМ РАЗВИТИЯ**

Sevara Ismatova

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrası
"Tashqi iqtisodiy faoliyat" mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Sevaraismatova99@gmail.com (+998977846657)*

Ilmiy rahbar: PhD, dots. va b.

Batirova N.Sh

Annotatsiya: *Islom taraqqiyot banki tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq vaziyat bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarning muhim kombinatsiyasini ifodalaydi. Islomiy moliya qanday ishlashini va rivojlanish loyihalarida qanday qo'llanilishini tushunish uchun ko'plab omillarni diqqat bilan o'rganish kerak. Bunda bankning strategik tashabbuslari, bozor tendentsiyalari, risklarni baholash usullari va qonunchilikning investitsion qarorlarga ta'siri tahlili kiradi.*

Kalit so'zlar: *Islom Taraqqiyot Banki, investitsion qarorlar, S&P Global Ratings, AAA peyting, bankning faol portfel, COVID-19 pandemiyasi, YaIM, infratuzilma tarmoqlari, istisno, lizing, kreditlar.*

Abstract: *The situation related to the financing of investment projects by the Islamic Development Bank today represents an important combination of economic, social and political aspects. Many factors need to be carefully studied to understand how Islamic finance works and how it is applied to development projects. This includes analysis of the bank's strategic initiatives, market trends, risk assessment methods, and the impact of legislation on investment decisions.*

Key words: *Islamic Development Bank, investment decisions, S&P Global Ratings, AAA rating, bank's active portfolio, COVID-19 pandemic, GDP, infrastructure sectors, exception, leasing, loans.*

Аннотация: *Ситуация с финансированием инвестиционных проектов Исламским банком развития сегодня представляет собой важное сочетание экономического, социального и политического аспектов. Многие факторы необходимо тщательно изучить, чтобы понять, как работают исламские финансы и как они применяются в проектах развития. Сюда входит анализ стратегических инициатив банка, тенденций рынка, методов оценки рисков и влияния законодательства на инвестиционные решения.*

Ключевые слова: *Исламский банк развития, инвестиционные решения, S&P Global Ratings, рейтинг AAA, активный портфель банка, пандемия COVID-19, ВВП, инфраструктурные отрасли, исключение, лизинг, кредиты.*

Bugungi kunda Islom taraqqiyot banki tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish iqtisodiyot, jamiyat va siyosatda katta o‘rin tutadi. Islom moliyasi qanday ishlashini va rivojlanish loyihalarida qanday qo‘llanilishini tushunish uchun ko‘plab omillarni tahlil qilish kerak. Bunga bank strategiyalari, bozor tendentsiyalari, risklarni baholash usullari va qonunchilikning investitsiya qarorlariga ta’siri tahlili kiradi.

S&P Global Ratings jamoatchilik taxminlariga asoslanib, 2020-yilda global moliya sektorining yillik o‘shish sur’ati va hajmi 10,6 foizgacha pasayganini ma’lum qildi. Biroq, prognozlarga ko‘ra, 2021-2022-yillarda jahon moliya sektori tiklanishi va 10-12 foizga o‘shishi kutilgan. 2020-2022-yillarda jahon moliya tizimida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmi COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy oqibatlari tufayli sezilarli darajada kamaydi. Shu o‘rinda Islom Taraqqiyot Bankining investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi moliyaviy faoliyatini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Islom taraqqiyot banki (The Islamic Development Bank) ko‘p tomonlama rivojlanish banki hisoblanadi. Mazkur moliyaviy tuzilma 1973-yil birinchi Islom konferensiyasi tashkilotida (hozirgi “Islom hamkorlik tashkiloti”) Moliya vazirlari tomonidan tashkil etilib, dastlabki faoliyatini 1975-yil 3-apreldan boshlagan. Mazkur xalqaro moliyaviy institut o‘zining a’zolari va butun dunyo bo‘yicha Islom diniga amal qiluvchi musulmonlar uchun ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ko‘maklashish borasida o‘z xizmatlarini taklif etib kelmoqda. Hozirgi kunda, “Islom Taraqqiyot Bankiga 57 ta mustaqil davlatlar a’zodir. Shu bilan bir qatorda, ushbu yirik moliyaviy xalqapo tuzilma AAA peyting natijasiga ega bo‘lib, o‘zining 16 milliard AQSh dollaridan ortiq operatsion aktivlari va 70 milliard AQSh dollari miqdoridagi kapitali dunyodagi eng faol Islomiy moliya muassasasi bo‘lib turibdi”.

E’tiborlisi shundan iboratki, Islom Tapaqqiyot Banki faoliyatining 5 yirik o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy etish orqali a’zo davlatlar hukumatlari, xususiy sektor vakillari hamda fuqarolik jamiyati o‘ptasida hamkorlikni qo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirish uchun shapoitlar yaratish;


– dunyoda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, ulardagi fuqarolik jamiyati a’zolarida bilim va ko‘nimalarni almashish faoliyatini yaxshilash natijasida ularning rivojlanishiga erishish;

– ilm-fan, innovatsion texnologiyalarga asosiy e’tiborni qaratish, ushbu yo‘nalishdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni hajmini yanada kengaytipish hamda BMTning Bapqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

– Islomiy moliya sohasida Islom moliyasiga to‘g‘ri keladigan uzoq muddatli hisoblangan bapqaror moliyalashtirish tuzilmalari (instrument)ning global rivojlanishga ko‘maklashish;

– a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy hisoblanmagan hamkorlik muhitini shakllantirish va mustahkamlashga erishish.

Yuqoridagi holatlarni statistik tahlillar orqali davom ettirish maqsadga muvofiqdir.



1-rasm. 2018-2022-yillarda Islom Taraqqiyot Bankidagi faol portfellar hajmi, mln. AQSh dollari


Yuqoridagi rasmga ko'ra, Islom Taraqqiyot Bankining 2018-2022-yillardagi faol portfeli stasistikasi keltirilgan. Unga ko'ra, 2018-yilda bankning faol portfelinining umumiy hajmi 29,085 mln. AQSh dollaridan iborat bo'lgan. Ushbu portfel hajmining asosiy qismi oddiy kapital resurslari hissasiga to'g'ri keladi: 25,706 mln. AQSh dollari, qolgan qismini trust fondalari va grantlar tashkil etadi: 3,379 mln. AQSh dollari. 2019-yilda mazkur yirik islomiy moliyasi tashkilotining faol portfeli hajmi 25,087 mln. AQSh dollarini tashkil etgani holda, oldingi yilga nisbatan 13,7 foiz kamaygan. Ushbu portfelni tarkibida trust fonlari va grantlar hajmi 8 foizdan ortiqroqni yoki 2,148 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

Portfelning asosiy qismini oddiy kapital resurslari egallaydi, ya'ni ushbu kapital hajmi 22,939 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan. 2020-yilda esa ushbu portfel hajmi biroz ortgan. Ya'ni mazkur yilda bank faol portfelida hajmi oldingi yilga nisbatan 2,8 foizga oshib, 25,800 mln. AQSh dollaridan iborat bo'lgan. Mazkur portfelning deyarli 90 foizini oddiy kapital resurslari hamda qolgan 10 foizini trust fondlari va grantlar hissasiga teng ekanligini ko'riladi. 2021-yilda Islom Taraqqiyot banki faol portfelinining umumiy hajmi 26,123 mln. AQSh dollaridan iborat bo'lgan. Faol portfel tarkibida oddiy kapital resurslari 23,693 mln. AQSh dollariga, trust fondlari va grantlar hajmi 2,430 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Ammo, 2022-yilda faol portfel hajmida sezilarli kamayish yuz bergan. Bunda tahlil etilayotgan yilda oldingi yilga nisbatan faol portfel hajmi 0,007 mln. AQSh dollariga kamayib, 26,116 mln. AQSh dollaridan iborat bo'lgan. Ushbu portfelning tarkibi quyidagicha, ya'ni 24,157 mln. AQSh dollari oddiy kapital resurslari hissasiga, qolgan 1,960 mln. AQSh dollari trust fondlari va grant mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

Umuman olganda, mazkur yilda faol portfel hajmidagi kamayish tendentsiyasini bank ma'muriyati COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siri bilan bog'laydi: "Dunyo miqyosida keng tarqalib ulgurgan COVID-19 pandemiyasi rivojlangan va rivojlanatyogan mamlakatlar o'rtasida yirik mashstabdagi global retsessiyaga olib kelganligini alohida qayd etish kepk. U o'zining salbiy global ta'siri tufayli iqtisodiy tiklanish jarayonlari turli davlatlar va ular

joylashgan mintaqalarda nomutanosibligi bilan bir qatorda, jahon iqtisodiyoti hayotida jiddiy muammolarni yuzaga chiqardi. Islom Taraqqiyot banki tomonidan olib borilgan hisob-kitoblarga asosan a'zo davlatlarda istiqomat qiluvchi 51 million nafar aholi vakillari global qashshoqlikka mahkum bo'lgan. Aytish kerakki, mazkur murakkab vaziyatdan chiqish uchun dunyodagi ko'pgina rivojlangan davlatlar pandemiyaning salbiy iqtisodiy xavflarini yumshatishga qaratilgan ko'plab fiskal imtiyoz va rag'batlantirishlarni o'z ichiga olgan paketlarni taqdim etish majburiyatini ham zimmasiga olgan edi. Ammo, Islom Taraqqiyot bankiga a'zo davlatlarda boshqa rivojlangan davlatlar singari moliyaviy imkoniyatlar, resurslar hamda rivojlanishning bapqaror tendentsiyalariga ega emasligi tufayli pandemiya ta'siridan chiqish anchagina mushkul bo'ldi. Bu esa, ulardagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni ham sekinlashuviga olib keldi. Qiyosiy tahlillar ko'rsatishicha, 2020-yil ma'lumotlarida bankka a'zo davlatlardagi YaIM hajmini o'sishi pasaygan hamda to'planishi mumkin bo'lgan umumiy YaIMning qariyb 15 foizi (taxminan 2,9 trln. AQSh dollari) yoqotilgan. Shunga qaramasdan 2021-yilda a'zo davlatlar iqtisodiyotining tiklanishi sodip bo'lgan bo'lsada, bu boradagi tiklanish jarayonlari iqtisodiyot tarmoqlarining yetarlicha diversifikatsiyasiga ega bo'lmagan a'zo davlatlarda sekinlashganicha qolaverdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, zaif holatda ishlangan 2022-yil iqtisodiyotining sekinlashuvi bilan bir qatorda ko'plab global muammolar, jumladan, energiya resurslari bopasida narxlarning sezilarli ko'tarilishi, bu boradagi energiya ta'minotidagi uzilishlarning ortishi, davlat byudjeti taqchilligining yanada ko'payishi, davlat qarzining o'sishi ppognoz parametrlaridan oshib ketishi, inflyatsion yoqotishlarning va xavf-xabarlarining kuchayishi investitsiya loyihalari moliyalashtirishdagi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi".

Yuqorida tanishib chiqilgan 2018-2022-yillarda Islom Taraqqiyot Banki tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya portfeli doirasida investitsiya loyihalari yakunlash natijalari quyidagicha tasniflanadi:



2-rasm. 2018-2022 yillarda Islom Taraqqiyot Banki investitsiya portfelidagi oddiy kapital resurslari hisobi moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari yakunlari

Yuqoridagi racmdan tahlillari keltirilgan Islom Taraqqiyot Banki investitsiya portfelidagi oddiy kapital resurslari hisobi moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari natijalariga ko'ra, 2018-yilda amalga oshirilgan loyihalarning 2 tasi qisman muvaffaqiyatli, 15 tasi muvaffaqiyatli hamda 6 tasi yuqori muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan.

Shuningdek, 2019-yilda bank tomonidan moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining 1 tasi qisman muvaffaqiyatli, 11 tasi muvaffaqiyatli hamda 2 tasi yuqori muvaffaqiyatli yakunlangan. 2020-yil yakunlari bo'yicha investitsiya loyihalarining 2 tasi qisman muvaffaqiyatli, 15 tasi muvaffaqiyatli va 9 tasi yuqori muvaffaqiyatli yakun topgan. Bundan tashqari, 2021-yilda oddiy investitsiya kapitali resurslari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining 18 tasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, 4 tasi yuqori muvaffaqiyatli bilan yakunlangan.

2022-yilda esa moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining 16 tasi muvaffaqiyatli hamda 3 tasi yuqori natijalar bilan yakunlanganligi aniqlandi.

Ko'pib o'tilgan davrda, ya'ni 2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfelining oddiy kapital resurslari hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1-jadval
2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfeli hisobiga
moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining natijalari

№	Natijalar	№	Natijalar
1	Kambag'allikni yoqotish borasida	5	Toza ichimlik suvi va sanitariya borasida
	30 ming boshpana qurilgan		1,9 mln xonadon ichimlik suvi tizimidan foydalandi
2	Ochlikka barham berish borasida	6	615 ming xonadon yaxshilangan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalandi
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti		Munosib ish o'rni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida
	13 mln tonnaga oshdi	6	267 mingkishi ish bilan ta'minlandi
	88 ming gektar sug'oriladigan maydon sug'orildi		189 ming kishi malakasini oshirdi
256 ming tonna o'simlik mahsulotlari yetishtirildi	7	201 ming kishi mikromoliyadan foydalandi	
1700 fermer o'qitildi		Arzon va "toza" energiya bilan ta'minlash borasida	
3	Sog'liqni saqlash borasida	7	34 mln xonadon elektr energiyasiga ulagan
	680 ta sog'liqni saqlash muassasi qurildi		2 ming km elektr uzatish liniyalari o'rnatildi
	3 mln sog'liqni saqlash hodimlari o'qitildi		Sanoat, innovatsiya va infratuzilma tarmoqlarini yaxshilash borasida
4	Sog'liqning saqlash muassasalariga 1,8 ming yotoq qo'shildi	8	1,3 ming km qishloq yo'llari qurildi
	Yiliga 83 mln kishi ambulatoriya xizmatlaridan foydalandi		870 km temir yo'l qurildi
	Ta'lim sifatini oshirish borasida		879 km avtomobil yo'llari qurildi
	Yiliga 1,2 mln talaba foyda ko'radi		60 mln yangi abonent internetga ulandi
	3,5 ming nafar o'qituvchilar Malaka oshirdi		

Yuqoridagi jadvalga 2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfeli hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining natijalari keltirilgan. Unga ko'ra, mazkur yirik islomiy moliyalashtirish modeliga asoslangan xalqaro moliya institutining kapitallari hisobiga amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining natijalar samaradorligi quyidagicha bo'lgan:

A'zo mamlakatlardagi aholi o'rtasida kambag'allikni yo'qotish borasida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari hisobiga 30 ming boshpana qurilishiga erishilgan;

A'zo mamlakatlardagi aholi o'rtasida ochlikka barham berish borasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 13 million tonnaga oshishiga qaratilgan investitsiya loyihalari moliyalashtirildi, 88 ming gektap sug'oriladigan maydon sug'orilishiga ko'maklashuvchi texnologiyalar sotib olindi, moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari hisobiga 256 ming tonna o'simlik mahsulotlari yetishtirildi, shuningdek, loyihalar davomida ishtipok etgan 1700 fermer o'qitildi;

Sog'liqni saqlash sohasiga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish natijasida 680 ta sog'liqni saqlash muassasasi qurildi;

3 million sog'liqni saqlash xodimlari o'qitildi, sog'liqni saqlash muassasalariga 1,8 ming yotoqva boshqa kerakli buyumlar xarid qilindi, a'zo davlatlarda istiqomat qiluvchi 83 million nafar aholi yiliga ambulatoriya xizmatlaridan foydalanishiga erishildi;

A'zo mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish borasida 1,2 million talaba foyda ko'rishiga erishildi, 3,5 ming nafar o'qituvchilarning malakasi oshirildi;


Toza ichimlik suvi va sanitariya sohasidagi investitsiya loyihalarini yetarlicha moliyalashtirish evaziga 1,9 million xonadonga ichimlik suvi tizimidan foydalanish imkoniyati yaratildi, 615 ming xonadon yaxshilangan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanishiga erishildi;

A'zo mamlakatlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun munosib ish o'rni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida 267 ming kishi ish bilan ta'minlandi, 189 ming kishi malakasini oshirdi, 201 ming kishi mikromoliyadan foydalandi;

Arzon va "toza" enepgiya bilan ta'minlash borasida 34 million xonadon elektr energiyasiga ulanishiga imkoniyat hozirlandi, 2 ming km elektr uzatish liniyalari o'rnatildi;


A'zo mamlakatlarda sanoat, innovatsiya va infratuzilma tapmoqlarini yaxshilash borasida 3 ming km qishloq yo'llari, 870 km temir yo'llar, 879 km avtomobil yo'llari qurildi va 60 million yangi abonent internetga ulandi.

Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfeli tarkibidagi oddiy kapital resurslari hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining islom modeliga asoslangan usullar/vositalar bo'yicha taqsimotini bo'yicha tahlillar quyida keltirilgan:



3-rasm. 2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfeli hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining usullar/vositalar bo'yicha taqsimoti

Tahlil natijalariga ko'ra, 2022-yilda Islom Taraqqiyot Banki faol investitsiya portfeli hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining asosiy qismi, ya'ni 80 foizi bo'lib-bo'lib sotish hisobiga, 3 foizi istisno hisobiga, 9 foizi qarzlار evaziga, 5 foizi lizinglar orqali va yana 3 foizi esa texnik ko'mak orqali amalga oshirilgan. Yuqoridagi investitsiya loyihalarini aniq hududlar misolida tahlil etish natijalar samaradorligini baholash imkonini beradi.



4-rasm. Al-Aqso va Al-Quds fondi loyihalarining asosiy natijalari ⁹

4-rasm. Al-Aqso va Al-Quds fondi loyihalarining asosiy natijalari

Islom Taraqqiyot banki kapitali hisobiga shakllantirilgan Al-Aqso va Al-Quds fondi orqali hududdagi mavjud ijtimoiy muammolar, iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashuvchi investitsiya loyihalari moliyalashtirildi. Mazkur loyihalarni moliyalashtirish orqali 35 mingta uyni qayta tiklash ishlari moliyalashtirildi, shuningdek, 276 ta maktab va universitetlarning qurilish ishlari bo'yicha investitsiya loyihalariga mablag'lar ajratildi, 24 ming oilaning iqtisodiy imkoniyatlari kengaytirildi, 35 mingta shifoxonalar qayta tiklandi.